Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetini shakllantirishga tayyorlashning nazariy va pedagogik asoslari

Abdulazizova Nilufar Abduraxmonovna
Farg’ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi dotsenti
nilufarabdulazizova73@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish, kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, zamonaviy talablar, pedagogik ta’lim dasturlarini yangilash, amaliy mashg‘ulotlar, treninglar, bo‘lajak zararli odatlarning oldini olish, maktab o‘quvchilari, mutaxasislarning fikrlari, oila, maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiyalar, tarbiyaviy metodlar, samarali muloqotga asoslangan yondashuvlar, profilaktik faoliyat, zararli odatlarning tarqalishiga sabab bo‘layotgan axborot bosimi, ijtimoiy tarmoqlardagi noto‘g‘ri targ‘ibot, oilaviy befarqlik, o‘quvchilarda sog‘lom ijtimoiy muhit shakllantirish va boshqalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, o‘quvchilar, zararli odatlar,immunitet, shakllantirish, tayyorlash, tizim, takomillashtirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsining roli faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi etakchi sub’ekt sifatida namoyon bo‘lmoqda. SHu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilar bilan samarali ishlash, pedagogik jarayonni zamonaviy talablar asosida tashkil qilish hamda ularda muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga tayyorlash masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar keskin o‘zgarmoqda. O‘quvchilar faqat bilim egallovchi sub’ekt emas, balki tanqidiy fikrlovchi, ijtimoiy faol, raqamli muhitda mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantirilmoqda. Bu esa o‘qituvchidan an’anaviy bilim berish usullaridan tashqari, kommunikativ, psixologik, innovatsion va tarbiyaviy kompetensiyalarni ham talab qiladi. Shu sababli pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimida amaliy tayyorgarlikni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni samarali pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy jihatlaridan biri — ularda o‘quvchilar bilan individual va guruhiy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Pedagogik jarayonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining o‘quvchilarning yosh-psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri anglashi, ular bilan ishlashda to‘g‘ri yondashuv tanlashi va motivatsiyani rivojlantirish qobiliyatiga bog‘liq. Shu bois, pedagogik ta’limda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy treninglar, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va refleksiv yondashuvni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda o‘quvchilarning ruhiy holati, ijtimoiy muhiti va salbiy xulq-atvor omillarini o‘rganishga qaratilgan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, UNICEF hamkorligida 2022 yilda o‘tkazilgan tadqiqotda maktab o‘quvchilarining psixoemotsional holati va unga ta’sir etuvchi omillar chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda o‘quvchilarda stress, xavotir va ijtimoiy bosim kabi holatlar zararli odatlarning shakllanishiga zamin yaratishi qayd etilgan. Shuningdek, oilaviy muammolar, maktabdagi zo‘ravonlik va tengdoshlar munosabatlari asosiy xavf omillari sifatida belgilangan[1].

So‘nggi yillardagi ilmiy psixologik-pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan mavzu yo‘nalishining muhimligiga qaramay, hozirgi kunda ushbu mavzudagi ilmiy va amaliy ishlarga oid manbalar etishmaydi. Zero, N.I.Sattarova tomonidan bajarilgan tadqiqot ishida bolaning Internet tarmog‘ida ishlash xavfsizligiga e’tibor qaratishga urg‘u beriladi[2]. Muallif pedagog, o‘quvchilar va ota-onalar uchun bir qancha tavsiyalar berib o‘tgan. Lekin tadqiqotda aynan ta’lim muassasasi hamda informatika darsida o‘quvchilarning axborot xavfsizligiga e’tibor qaratilgan, xolos.

Sh.T.Xalilovaning “O‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari” nomli dissertatsiya ishida o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda radioeshittirishlarning mohiyati, maqsadi va vazifalari va ulardan foydalanish tizimi hamda ularning pedagogik xususiyatlari ochib berilgan[3].

[1]https://www.unicef.org/uzbekistan/en/media/5186/file/Adolescents%27%20mental%20health%20at%20school.pdf?utm_source=chatgpt.com

[2] Саттарова Н.И. Учитель информатики рекомендует // Компьютерные инструменты в образовании: сб. науч. тр. - СПб., 2000, № 3-4, С.129-134.

[3] Халилова Ш.Т.Ўқувчиларни ахлоқий-эстетик тарбиялашда оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишнинг педагогик шарт-шароитлари (Ўзбекистон радиоси эшиттиришлари мисолида). Пед. фан. ном. дисс. - Т.: 2001, - Б. 58..

K.A.Farfieva tomonidan bajarilgan “Ommaviy axborot vositalari ta’sirida talabalarda ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining o‘ziga xosligi” tadqiqotida televideniening talaba yoshlar ongiga etkaziluvchi ta’sirchan axborotning ular ijtimoiy tasavvurlari tizimi tarkibidagi ijtimoiy moslashuvlarda aks etishi muammosi tadqiq etilgan[4].

N.M.Dalimovaning “Kompyuter o‘yinlariga tobe o‘smirlarning psixik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari” nomli dissertatsiya tadqiqotida o‘smirlarni ommalashgan kompyuter o‘yinlariga tobelikdan himoya qilish borasida qator tavsiyalar ishlab chiqilgan[5]. Ushbu tadqiqot ishida hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblangan kompyuter o‘yinlariga tobe o‘smirlarning psixik diagnostikasi va korreksiyasi ishlab chiqilgan. Ammo ushbu muammoga yondosh masalalardan biri bo‘lgan axborot manbalarining axboriy tahdidi muammosi ochib berilmagan.

Sh.R.Rahimovaning “O‘smirlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari” nomli tadqiqot ishida o‘quvchilarda zararli odatlarga qarshi pedagogik profilaktika tizimi ishlab chiqilgan[6]. Unda jismoniy faollik va sog‘lom ovqatlanish orqali immunitetni shakllantirish usullari ko‘rsatilgan. Biroq tadqiqotda psixologik barqarorlik va stressga chidamlilik komponentlari etarlicha tahlil qilinmagan.

F.M.Tursunovaning “Maktab o‘quvchilarida mediamadaniyatni shakllantirish orqali salbiy ta’sirlarni bartaraf etish” nomli ilmiy ishida internet muhitining ta’siri tahlil qilingan[7]. Tadqiqotda mediasavodxonlikni oshirish orqali zararli odatlarga qarshi profilaktika choralari ishlab chiqilgan. Ammo ijtimoiy muhit va oilaviy ta’sir omillari etarlicha tizimli tahlil qilinmagan.

Fikrimizcha, bolani samarali va to‘laqonli rivojlantirish uchun sog‘lom ijtimoiy muhitini yaratishning imkoni yo‘q. “Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, radio-televidenie, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni

[4] Фарфиева К.А. Оммавий ахборот воситалари таъсирида талабаларда ижтимоий тасаввурлар шаклланишининг ўзига хослиги (Телевидения мисолида) Пси. фан. ном. дисс. - Т.: 2005, - Б. 35.
[5] Далимова Н.М. Компьютер ўйинларига тобе ўсмирларнинг психик диагностикаси ва коррекцияси хусусиятлари. Псих. фан. ном. дисс.. -Т.: 2010,-Б 56.
[6] Раҳимова Ш.Р. *Ўсмирларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг педагогик асослари*. – Тошкент: Фан ва технология, 2022. – 41–72-б.
[7] Турсунова Ф.М. *Мактаб ўқувчиларида медиамаданиятни шакллантириш орқали салбий таъсирларни бартараф этиш*. – Тошкент: Университет нашриёти, 2023. – 58–64-б.

o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning maqsad muddaomizga ham to‘g‘ri kelmaydi”[8]. Darhaqiqat, ushbu hayotiy fikrga ko‘ra o‘quvchi ongini o‘rab-chirmash, atrofini temir devor bilan o‘rab olish mutlaqo noto‘g‘ridir. Balki, yosh avlodni har qanday zararli odatlarga qarshi tura olish va himoyalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozimdir. Demak, yosh avlodni zararli odatlar himoyalashni bugungi kunga kelib, dunyoda mavjud bo‘lgan global muammolar qatoriga kiritishimiz mumkin ekan.

Bola tarmoqdagi resurslarda ishlayotganda, reklama oynasida qalqib chiquvchi kiyimsiz tana rasmini ixtiyorsiz ko‘rishga majbur bo‘ladi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, pedagog va ota-onalar Internetdan keluvchi xavfni tushunmaydilar va oldindan ko‘ra olmaydilar. Bola shaytoniy sig‘inish marosimlari, tarmoqdagi “jinsiy munosabatlar” ga kirib qolishi mumkin, binobarin kompyuter qarshisida o‘tirib, ularning yig‘inlarida ishtirok etishi juda oson. Fikrimizcha, onlaynli do‘stlar bilan uchrashuvlar jiddiy xavf tug‘diradi. Ushbu holatda: kattalar bolalar ishonchiga kirish maqsadida o‘zlarini o‘smir sifatida ko‘rsatishlari mumkin. Iltifotli, xayrixoh suhbatdosh bolani shaxsiy muammolar muhokamasiga tortib, uni o‘ziga hissiy bog‘lab olishga intiladi. Ota-onalar begonalashuvini his etuvchi bolalar ayniqsa zaif bo‘lib, ushbu holatda yovuzlik strategiyasiga duch kelganlarini sezmaydilar[9].

Aksariyat ota-onalarning fikricha, bolalar maktabda emas, balki asosan uyda kompyuterdan foydalanishda istalmagan saytlarga kirish, norasmiy dasturiy ta’minotlarni ko‘chirib olish yoki notanish kishilar bilan muloqotga kirishishga harakat qiladilar. Ta’lim muassasalari ma’muriyati o‘quvchilarning Internetdan foydalanishini cheklovchi dasturiy ta’minotdan foydalanadi. Ota-onalarning e’tibori mavjud emasligi tufayli bolalarning global tarmoqdan foydalanishi chegaralanmagan[10].

Axborot targ‘iboti ta’sirida (OAV, Internet, destruktiv yo‘nalishdagi xorijiy ta’limiy-ma’rifiy loyihalar) bolalarda tabiiy himoyali ruhiy mexanizmlari chegaralanib, ruxsat etilgan va ta’qiqlangan, normal bo‘lmagan va anomal hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlari yo‘qolib ketadi. Albatta, bu ayniqsa tasavvuri boy bolalar va o‘smirlarga taalluqli. O‘quvchi ommaviy kommunikatsiya tarmog‘i tomonidan yaratiluvchi axborot maydoniga tushib qoladi - globallashtirilgan madaniy muhit hamda yangi

[8] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Т.: “Маънавият”, 2008, -Б. 114.
[9] Пристанская О.В. Право на информационную безопасность и его реализация // Материалы семинара “Содействие развитию образования в области прав человек”. - М., 2002. –С. 71.
[10] Саттарова Н.И. Информационная безопасность школьников в образовательном учреждении. Дис. канд. пед. наук.- Санкт-Петербург, 2003, - С. 134.

texnologiyalar yordamida yaratilgan va o‘zida turli komponentlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini birlashtiruvchi axborot maydonida amal qiluvchi ommaviy axborot vositalarini o‘z ichiga oladi[11]. SHu munosabat bilan o‘quvchilarning ijtimoiy agent sifatidagi qadriyatlari tarkibi va axborot muhitining o‘zaro ta’sirlashuvi muammosi yuzaga keladi. Muhit va sub’ektning bunday munosabati ziddiyatli bo‘lib, bu uning tarkibiy qismlaridagi murakkab tarkibli tuzilma bilan izohlanadi. Bu tushuncha yordamida bolaning murakkab axborot muhitidagi ijtimoiylashuvi xususiyatlarini belgilovchi zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat holati muammoli tus oladi.

Ayrim axborot manbalarining ta’siri nafaqat turli mazmunlarni ifodalovchi vaziyatlar, balki o‘quvchilar uchun ularning ijtimoiy mavqei va referentligiga (malum masalalar bo‘yicha doklad qiladigan yoki maslahat beradigan shaxs) ko‘ra, turlicha bo‘ladi[12]. O‘quvchi shaxsi zamonaviy jamiyatdagi turmush va ijtimoiy fe’l-atvorning mo‘ljalli-axborotli asoslarga amal qilishi va shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi yoki qiyinlashtiruvchi turli-tuman axborot omillarining ta’sirida himoyasiz qoladi.

Zararli axborot muhiti omillari ta’sirining oqibatlari:

- o‘zini-o‘zi baholay olmaslik yoki fikrlari tarqoqligi;
- atrofdagi vaziyatga moslasha olmaslik;
- bolaning atrof-olam to‘g‘risidagi tasavvurlarining buzilishi va undagi o‘rinni yo‘qolishi;
- o‘zini-o‘zi hurmat qilishga va ishonchga nisbatan hisning pasayishi;
- “men” degan va beqiyosligi haqidagi fikrning yo‘qolishi;
- reja va niyatlarining buzilishi;
- noto‘g‘ri maqsad va xatti-harakat usullarini tanlashi;
- boshqa ta’sir sub’ektlariga ruhan bog‘liq bo‘lib qolishi;
- ma’naviyatining buzilishi;
- ruhiyatning potologik o‘zgarishlari ro‘y berishi va ruhiy salomatlikning buzilishidan iborat bo‘lishi mumkin. Shu tarzda, zarar ba’zi ruhiy tuzilmalar va shaxs tarkibining sub’ektlik va shaxsan qat’iylikning yo‘qolishigacha turli darajadagi nomutanosibliklarni aks ettiradi[13]. Demak, ilmiy tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar tahlili

[11] Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, - С. 4.
[12] Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, - С. 65.
[13] Домозетов Х. Компьютеризация и проблемы здоровья, свободы и развития личности // Философская и социологическая мысль: сб. науч. тр. - М., 2000, № 4, - С. 16

shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda zararli odatlar to‘g‘risidagi bilimlar ruhiy va axloqiy-ma’naviy ta’siri oqibatlarini kamaytirish, unga qarshi tura olish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lib, u bo‘yicha modernizatsiyalashtirilgan tizimni yoki boshqacha aytadigan bo‘lsak pedagogik yo‘naltirilgan jarayonni yaratish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2008, 173 b.
2. Грачев Г.В. Информационно-психологическая безопасность личности: Теория и технология психологической защиты. Дис. док.пси. наук. - М.: 2000, - 360 с..
3. Ёзиева У.Л. Интернет как источник вредной информации//Подготовка профессиональных управленческих кадров: опыт, проблемы, инновационные образовательные технологии. // Материалы международной научной-практической конференции. -Челябинск, 2014. С. 35-39.
4. [1] Урсул А.Д. Информационная стратегия и безопасность в концепции устойчивого развитиях // Научно-техническая информация. Серия 1: Организация и методика информационной работы. 1996, №1, С.7.
5. [1] Xalilova Sh.T.O‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari (O‘zbekiston radiosi eshittirishlari misolida). Ped. fan. nom. diss. - T.: 2001, - 142 b.
6. [1] Грачев Г.В., Мельник И.И. Манипулирование личностью: организация, способы и технологии информационно-психологического воздействия.- М.: Алгоритм, 1999, 153 с
7. Yoziyeva U.L. Oilada bolani televideniyega ijobiy munosabatini shakllantirishning pedagogik imkoniyati // Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. –Nukus, 2016. -№4. -B. 40-42.